

**O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZİDENTİNİN  
FARMONI**

**KORRUPSIYAGA QARSHI MUROSASIZ MUNOSABATDA BO'LISH MUHİTINI  
YARATIŞ, DAVLAT VA JAMİYAT BOSHQARUVIDA KORRUPSIYAVİY  
OMİLLARNI KESKİN KAMAYTIRISH VA BUNDA JAMOATCHILIK ISHTIROKİNİ  
KENGA YTIRISH CHORA-TADBİRLARI TO'G'RISIDA**

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilmoxda.

Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoraliq va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdar shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Davlat hokimiyyati organlari va yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Raqamli texnologiyalar imkoniyatidan keng foydalangan holda transport vositalariga davlat raqam belgilarini berish, notariat va boshqa davlat xizmatlarini ko'rsatish, yer uchastkalarini ajratish, yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish kabi ko'plab sohalarda korrupsiya va suiste'molchiliklarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, ko'rileyotgan tizimli chorallarga qaramasdan, budget mablag'laridan foydalanish, davlat xaridlari, kapital qurilish, litsenziya va ruxsatnomalarni olish, bank kreditlarini ajratish, ishga qabul qilish kabi yo'nalishlarda korrupsiya holatlari saqlanib qolmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirish maqsadida:

1. Mamlakat rivojlanishining bugungi bosqichida korrupsiya O'zbekiston davlati va jamiyati taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligi qayd etilsin.

Korrupsiya holatlarning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish va unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilansin.

Bosh prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rnlarda — Agentlik), Davlat xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta'minlash uchun barcha kuch va vositalarni safarbar etsin.

2. Keng jamoatchilikning fikri va takliflarini inobatga olib, davlat boshqaruvini korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish maqsadida:

a) Agentlik tomonidan "Korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestri" (keyingi o'rnlarda — Reyestr) yuritilishi ta'mnlansin;

b) Reyestrga kiritilgan shaxslarga quyidagilar taqiplansin:

davlat xizmatiga kirish va davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi;

saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodlarining ko'rsatilishi; davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda idoralararo kollegial organlarning a'zosi bo'lish;

ular tomonidan ta'sis etilgan va (yoki) ular ishtirokchisi hisoblangan tadbirkorlik subyektlari davlat xaridlarida va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda ishtirokchi (ijrochi) sifatida qatnashish, shuningdek, davlat aktivlarini xususiylashtirish bilan bog'liq tender va tanlov savdolarida ishtirok etish;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar hamda davlat ta'lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritish.

3. Agentlik Bosh prokuratura, Oliy sud, Adliya vazirligi, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda Reyestrni va u bilan bog'liq cheklovlarini amaliyotga joriy etishga qaratilgan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritsin.

Belgilansinki, Reyestrga mazkur bandning birinchi xatboshisida nazarda tutilgan qonun kuchga kirganidan so'ng korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslar kiritiladi.

4. 2022-yil 1-yanvardan boshlab, davlat xizmatchilari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar, davlat korxonalari va muassasalari rahbarlari va o'rinnbosarlar, ularning turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish tizimi joriy etilsin.

Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

davlat xizmatchisi tomonidan deklaratsiyani taqdim etishdan bosh tortish va qasddan noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish uni davlat xizmatidan chetlashtirishga va qonunda belgilangan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi;

2022-yil 1-yanvardan boshlab davlat xizmatchilariga respublika hududidan tashqarida hisobraqamlar ochish va egalik qilish, naqd pul mablag'larini saqlash, ko'chmas va boshqa mol-mulkka ega bo'lish taqiqlanadi (xorijda ishlayotgan davlat xizmatchilari va davlat xizmatiga kirishdan oldin olingan mol-mulk bundan mustasno).

Agentlik Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda davlat xizmatiga oid qonunchilik hujjatlari paketi, shuningdek, deklaratsiyalash tizimini joriy etish mexanizmlari, deklaratsiya taqdim etishi lozim bo'lgan davlat xizmatchilari va ularning oila a'zolari toifasini nazarda tutuvchi "Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazib Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

5. Belgilansinki, qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan lavozimni egallab turgan shaxsning bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaati mansab (xizmat) majburiyatlarini obyektiv va xolis bajarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yoki shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyatlar manfaatlar to'qnashuvi hisoblanadi hamda bunday vaziyatlarni oshkor qilish va ularning oldini olish bo'yicha o'z vaqtida chora ko'rmanlik o'rnatilgan tartibda javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Agentlikka manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq har qanday holatlar aniqlanganda, shartnama, buyruq va boshqa hujjatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida taqdimnomalar yoki uni haqiqiy emas deb topish bo'yicha sudga da'vo kiritish vakolati berilsin.

Adliya vazirligi Agentlik, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va Bosh prokuratura bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar "Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish to'g'risida"gi qonun, shuningdek, davlat xaridlari, soliq imtiyozlari, yer ajratish, davlat aktivlarini xususiylashtirish sohalarida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikni o'rnatishni nazarda tutuvchi qonun loyihalarni ishlab chiqib Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

6. Bosh prokuratura Agentlik, Oliy sud, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va Adliya vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritsin:

Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiruvchi moddalarning aniq ro'yxatini belgilash;

korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralarini uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasingacha keskin kuchaytirish;

daromadlar va mol-mulkni deklaratsiyalash jarayonida aniqlangan noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlik o'rnatish;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazoni o'tashda yengillashtiruvchi normalar qo'llanilishiga cheklovlar belgilash.

7. Davlat xaridlari raqobatli savdo turlarini cheklovchi to'g'ridan to'g'ri shartnomalar, investitsiyaviy, davlat-xususiy sheriklik, xususiylashtirish va boshqa bitimlarni tuzishni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha tashabbus bilan chiqish qat'ian taqiqlansin.

8. Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuratura va Adliya vazirligi ikki oy muddatda ilg‘or xorijiy tajriba asosida davlat moliyaviy nazorat institutlarini maqbullashtirib, ularning samarali modelini joriy etish va ushbu sohada parlament nazoratini kengaytirish bo‘yicha taklif kirtsin.

9. Adliya vazirligi Bosh prokuratura va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 1-noyabrga qadar:

barcha inspeksiyalarning vazifa va funksiyalari, vakolatlari, huquq va majburiyatlar, tashkiliy tuzilmalarini qayta ko‘rib chiqib, takomillashtirish;

boshqa shakldagi (qo‘mita, agentlik, xizmat) davlat boshqaruvi organlarining nazorat sohasidagi funksiyalarini maqbullashtirishni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlari loyihamasiga kirtsin.

10. Mahalliy budget mablag‘laridan foydalanishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf qilish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlari muntazam ravishda mahalliy budgetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘lardan foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

Oliy Majlis palatalariga Korruksiyaga qarshi kurashish milliy kengashi bilan birgalikda ikki oy muddatda mahalliy budgetlar hisobidan tashkil etilgan vaqtinchalik va maxsus jamg‘armalar mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash tavsiya etilsin.

11. Korruksiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Agentlik davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan muntazam ravishda nazorat olib borsin va har chorak yakunlari bo‘yicha Korruksiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga axborot kiritib borsin.

Korruksiyaga qarshi kurashish milliy kengashi (T. Narbayeva) davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini har chorakda tanqidiy muhokama qilib borsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari **2-ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari **3-ilovaga** muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

13. Agentlik bir oy muddatda qonunchilik hujjatlari ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

14. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil etishga mas’ul etib Bosh prokuror N.T. Yo‘ldoshev, Agentlik direktori A.E. Burxanov va Davlat xavfsizlik xizmati raisi A.A. Azizov belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Korruksiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi T.K. Narbayeva, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga har chorak yakuni bo‘yicha axborot berib borilsin.

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 6-iyul,  
PF-6257-son

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldaggi PF-6257-son Farmoniga  
1-ILOVA**

### **Korruksiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan**

#### **DAVLAT DASTURI**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro	Mas’ul ijrochilar
-----	-------------------	---------------------------	------	-------------------

			muddati	
<b>I. Korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish</b>				
1.	Davlat fuqarolik xizmatiga ochiq tanlov asosida ishgaga qabul qilish hamda xodimlarning kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlari (meritokratiya tamoyili) asosida xizmat pog'onalari ko'tarilishi, davlat xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilishning shaffof mexanizmlarini joriy etish hamda ularning aniq vazifalarini belgilash.	"Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun loyihasini xorijiy ekspertlarning tavsiyalari va keng jamoatchilik fikri asosida takomillashtirish hamda uni amalga oshirish bo‘yicha ◆ Onunosti normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari paketini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil 1-sentabr	Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Adliya vazirligi
2.	Davlat xizmatchilarining odobaxloq kodeksi loyihasini ishlab chiqib, Oliy Majlis palatalarining qo‘shma qarori bilan tasdiqlash.	Davlat xizmatchilarining odobaxloq kodeksi loyihasini ishlab chiqib, Oliy Majlis palatalarining qo‘shma qarori bilan tasdiqlash.	2021-yil 1-sentabr	Oliy Majlis palatalari, Adliya vazirligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
3.	Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestagini va u bilan bog‘liq cheklowlarni amaliyotga joriy etishga qaratilgan qonun loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish.	Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestagini va u bilan bog‘liq cheklowlarni amaliyotga joriy etishga qaratilgan qonun loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish.	2021-yil 1-oktabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Oliy sud, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, Inson huuqqlari bo‘yicha Milliy markaz, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi
4.	Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish.	Har yili yil yakuni bo‘yicha barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholovchi reytingni e’lon qilish tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil 1-sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi
5.	Davlat organlari faoliyatida korrupsiyaviy	Mutasaddi vazirlik va idoralarning axborot tizimlari va	2022-yil 1-yanvar	Korrupsiyaga qarshi kurashish

	xavflarni baholash elektron tizimini yaratish.	ma'lumotlar bazasi bilan Elektron hukumatning idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i orqali integratsiyalashgan Korrupsiyaviy xavflarni baholash elektron tizimini ishga tushirish.		agentligi, Axborot texnologiyalari vazirligi
6.	Davlat xizmatchilari, shu jumladan davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar, davlat korxonalari va muassasalari rahbarlari va o'rinnbosarlari, ularning turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish tizimini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish.	Quyidagilarni nazarda tutuv <i> edi</i> “Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish: deklaratsiya topshirish talab etiladigan shaxslar doirasи; daromadlar va mol-mulkni majburiy deklaratsiya qilish tizimining har bir bosqichini joriy etish mexanizmlari; deklaratsiyalarni monitoring qilish va natijalarini e’lon qilib borish tartibi; deklaratsiyani taqdim etishdan bosh tortganlik va qasddan noto‘g‘ri ma'lumotlarni kiritganlik uchun javobgarlik belgilash.	2021-yil 1-sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
7.	Daromad va mol-mulk deklaratsiyalari bo‘yicha ma'lumotlar bazasini yuritishni yo‘lga qo‘yish.	Daromad va mol-mulk deklaratsiyalari bo‘yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ularni qayta ishlash va tekshirishning elektron axborot tizimini yaratish.	2021-yil 1-dekabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Axborot texnologiyalari vazirligi
		Ushbu axborot tizimini soliq, bojxona, davlat kadastri va boshqa tegishli organlarning ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya qilish.	2022-yil yakuniga qadar	
8.	“Korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish.	Korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazishning yangilangan tartibi — ilmiy va mustaqil ekspertizadan o‘tkazishni joriy etish, davlat organlari va tashkilotlarining mas’ulligini oshirish, korrupsiyaga qarshi ekspertiza bo‘yicha ish rejalari va aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjati loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil 1-sentabr	Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura
9.	Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish maqsadida davlat organlari	Davlat organlari faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash metodikasini tasdiqlashni nazarda tutuvchi	2021-yil 1-dekabr	Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi,

	tomonidan funksiyalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha samarali choralarni belgilash.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjati loyihasini ishlab chiqish.		Bosh prokuratura
10.	Vazirlik va idoralar tarkibidagi nazorat organlari (inspeksiylar) faoliyatini takomillashtirish.	Barcha inspeksiyalarning vazifa va funksiyalari, vakolatlari, huquq va majburiyatlar, tashkiliy tuzilmalarini qayta ko‘rib chiqib, ularni takomillashtirishni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlari loyihalarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil 1-noyabr	Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, manfaatdor vazirlik va idoralar
11.	Davlat moliyaviy nazorat institutlarini takomillashtirish.	Ilg‘or xorijiy tajriba asosida davlat moliyaviy nazorat institutlarini maqbullashtirib, ularning samarali modelini joriy etish va ushbu sohada parlament nazoratini kengaytirish bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish.	2021-yil 1-sentabr	Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi
12.	Qurilish obyektlarida nazorat o‘lchovini amalga oshirish tizimini takomillashtirish.	Davlat moliyaviy nazorati departamenti tarkibida Qurilish obyektlarida nazorat o‘lchovini amalga oshirish bo‘linmasini tashkil etish, shuningdek, davlat nazorat-taftish idoralari, operativ-qidiruv faoliyati subyektlari va tergov-surishtiruv idoralari so‘roviga muvofiq, qo‘unchilikda belgilangan asoslarda o‘tkaziladigan nazorat o‘lchovi ushbu bo‘linma tomonidan bepul amalga oshirilishini nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarorini ishlab chiqish.	2021-yil 1-oktabr	Moliya vazirligi, Qurilish vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
13.	Davlat ishtirokidagi korxonalarda moliyaviy natijadorlikka erishish va davlat mulkidan samarali foydalanish ustidan ta’sirchan nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish.	Davlat aktivlarini boshqarish agentligining davlat ishtirokidagi korxonalarda moliyaviy natijadorlik va davlat mulkidan foydalanish holati yuzasidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hisobot berib borish amaliyotini joriy etish.	har yil yakuni bo‘yicha	Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
14.	Davlat xizmatida suiiste’molchiliklarning	Davlat organlari va tashkilotlarida kadrlar bilan	2021-yil 1-sentabr	Adliya vazirligi, Davlat xizmatini

	oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy etish.	ishlash, xo‘jalik ishlari, moliya-iqtisod bo‘linmalari va nazorat funksiyasiga ega tuzilmalar rahbarlarini muayyan muddatda rotatsiya qilish hamda suiiste’molchiliklarning oldini olish bo‘yicha qo‘srimcha mexanizmlarni joriy etish yuzasidan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Bunda rotatsiya qilingan xodimlarning ko‘chib o‘tish va uy-joy olish (ijaraga olish) bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash mexanizmlarini nazarda tutish.		rivojlantirish agentligi, Axborot texnologiyalari vazirligi
15.	Davlat xizmatchilarining xizmat safarlari mobaynida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish.	Respublika hududlariga yuboriladigan davlat organ va tashkilotlari xodimlarining xizmat safarlari bilan bog‘liq xarajatlarni tanqidiy tahlil qilish hamda belgilangan me’yorlarni haqiqiy xarajatlarga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil 1-oktabr	Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi
16.	Yo‘l qurilishi va ekspluatatsiyasi sohasiga shaffoflik standartlarini joriy qilish.	Avtomobil yo‘llari sohasiga tegishli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan “SNAFFOF YO‘L” onlayn axborot platformasini ishga tushirish bo‘yicha qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.  Loyihada platformada avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash obyektlarining interaktiv onlayn-xaritasini ishlab chiqish hamda unda keyingi yilda quriladigan va ta’mirlanadigan yo‘l uchastkalarini aniqlash va ularni xaritaga joylash hamda buni jamoatchilikka taqdim etish amaliyotini nazarda tutish.	2022-yil 1-yanvar	Adliya vazirligi, Transport vazirligi, Moliya vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
17.	Davlat budgeti hamda shuningdek, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarning amalga oshirilishi ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish.	Davlat budgeti, shuningdek, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar, shu jumladan istiqbolli investitsiya va infratuzilma loyihalari bo‘yicha ularning yakuniy texnik-iqtisodiy asosini va boshqa loyiha hujjatlarini ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan	2021-yil 1-dekabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar

		ma'lumotlar sifatida belgilash.		
18.	Banklarda jismoniy shaxslarga kredit ajratishda mijozni identifikatsiya qilishning zamonaviy tizimini joriy etish.	Davlat personallashtirish markazi bilan integratsiya qilgan holda bank tizimida jismoniy shaxslarga kredit ajratilishida mijozning biometrik belgilari (barmoq izi yoki yuzdan)ni tekshirish orqali identifikatsiya qilish tizimini joriy etish bo'yicha tashkiliy choralarni ko'rish.	2021-yil 1-sentabr	Markaziy bank, Davlat personallashtirish markazi, Axborot texnologiyalari vazirligi
<b>II. Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish</b>				
19.	Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni tartibga solishning huquqiy asoslarini shakllantirish.	"Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish to'g'risida"gi qonun, shuningdek, davlat xaridlari, soliq imtiyozlari, yer ajratish, davlat aktivlarini xususiylashtirish sohalarida manfaatlar to'qnashuviga yo'1 qo'yanlik uchun javobgarlikni o'rnatishni nazarda tutuvchi qonun loyihamarini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2022-yil 1-yanvar	Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Bosh prokuratura
20.	Davlat xaridlari sohasida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.	Jismoniy shaxslarning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasi bilan davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalining ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash orqali manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq xavflarni aniqlash imkonini beruvchi elektron tizimni joriy qilish.	2022-yil 1-yanvar	Moliya vazirligi, Adliya vazirligi
21.	Davlat xaridlari sohasida ochiqlikniga ta'minlash.	Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali ma'lumotlari asosida davlat buyurtmachilarining davlat xaridlari jarayonlari monitoringini yuritish va uning natijalari bo'yicha har oylik ma'lumotlarni keyingi oyning 15 sanasiga qadar rasmiy veb-saytda ochiq e'lon qilib borish.	belgilangan muddatda	Moliya vazirligi
		E'lon qilib boradigan har oylik ma'lumotlarni batafsil o'rgangan holda keyingi oyning 30 sanasiga qadar manfaatlar to'qnashuvi yoki korrupsiya alomatlari mavjudligi to'g'risida xulosani veb-saytlarda e'lon qilib borish.	belgilangan muddatda	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
22.	Oxirgi benefitsiarga	Benefitsiarlar reyestrini yuritish	2021-yil 1-	Monopoliyaga

	oid ma'lumotlarni olish tartibini takomillashtirish.	amaliyotini yo'nga qo'yish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	noyabr	qarshi kurashish qo'mitasi, Adliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Hisob palatasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Markaziy bank
23.	Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalida shikoyatlarni elektron shaklda taqdim qilish imkoniyatini yaratish.	Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalida murojaatlarni elektron shaklda taqdim qilish imkonini beruvchi sahifa yaratish va shikoyatlarni to'g'ridan to'g'ri Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga yuborish mexanizmlarini joriy etish.	2022-yil 1-yanvar	Moliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
24.	Davlat xaridlari amalga oshiriladigan maxsus axborot portalida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lgan xavflarni oldini olish tizimini takomillashtirish.	<p>Davlat xaridlari amalga oshiriladigan maxsus axborot portalida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lgan xavflarning oldini olish bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan tizimni joriy qilish yuzasidan takliflar kiritish:</p> <p style="padding-left: 2em;">qatnashchining davlat xaridlaridagi ishtiroki tarixi (mahsulot, xizmat yetkazib beruvchining ilgari ishtirok etgan tanlovlari, bajargan ishlari);</p> <p style="padding-left: 2em;">qatnashchining benefitsiarlari haqidagi ma'lumotlar;</p> <p style="padding-left: 2em;">buyurtmachi va ishtirokchi o'rtaсидаги ehtimoliy bog'liqliklar (qarindoshlik, birga ta'lim olganlik, mehnat faoliyati yoki biznes aloqalari va boshqalar haqidagi ma'lumotlar).</p> <p style="padding-left: 2em;">Avtomatlashtirilgan tizim orqali manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan hollarda avtomatik ravishda davlat xaridi jarayonida bitimga da'vogarning ishtirokini cheklash yuzasidan takliflar tayyorlash.</p>	2021-yil 1-dekabr	Moliya vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Adliya vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi
25.	Qonunchilikka davlat xizmatiga qabul qilish va unda faoliyat olib	Mehnat kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha	2021-yil 1-dekabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi,

	borishda qarindosh-urug‘chilik va boshqa suiiste’molchiliklarning oldini olishga qaratilgan normalarni kiritish.	qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya vazirligi
--	--	---	--	--

### **III. Korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish**

26.	Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari samarali faoliyatini tashkil etish.	Barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqlapog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariда mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy choralarini ko‘rish.	2021-yil 1-oktabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqlapog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
27.	O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish.	O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi to‘g‘risidagi nizom loyihasini ishlab chiqish va uni Milliy kengash tomonidan tasdiqlash.	2021-yil 1-dekabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
28.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining qonuniy faoliyatiga to‘sinqinlik qilganlik uchun javobgarlik choralarini belgilash.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining qonuniy faoliyatiga to‘sinqinlik qilgan va (yoki) qonuniy talablarini bajarmagan mansabdar shaxslarga nisbatan ma’muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish.	2022-yil 1-fevral	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
29.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ilmiy tadqiqotlar, i♦timoiy so‘rovlari o‘tkazish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzurida olimlar, ilmiy-akademik doira vakillaridan iborat Ekspertlar guruhining faoliyatini tashkil qilish.	2021-yil 1-oktabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Moliya vazirligi
30.	Korrupsiyaning oldini olish va uning fuqarolik-huquqiy oqibatlarini bartaraf etishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq har qanday holatlar aniqlanganda, shartnomalar, buyruq va boshqa hujjat amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risida taqdimnomalarini kiritish yoki uni haqiqiy emas deb topish bo‘yicha	2021-yil 1-sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Oliy sud, Bosh prokuratura

		sudga da'vo kiritish vakolatini berishni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjati loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		
<b>IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish</b>				
31.	Korrupsiyaga qarshi qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi ayrim normalarini implementatsiya qilish.	<p>Quyidagilarni nazarda tutuvchi qonun loyihasini kiritish:</p> <p>Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiruvchi moddalarning aniq ro'yxatini belgilash;</p> <p>korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralarini uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasingacha kuchaytirish;</p> <p>daromadlar va mol-mulkni deklaratsiyalash jarayonida aniqlangan noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlik o'rnatish;</p> <p>korrupsiyaga oid jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazoni o'tashda yengillashtiruvchi normalarni qo'llashga cheklov belgilash.</p>	2021-yil 1-oktabr	Bosh prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Oliy sud, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi
32.	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakatlar rejasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish.	<p>To'rtinchchi raund natijalari bo'yicha O'zbekistonga berilgan tavsiyalarni tahlil qilib, ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.</p> <p>Mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda tasdiqlangan rejaning amalga oshirilishini har chorakda monitoring qilish.</p> <p>IHTTning Istanbul harakatlar rejasidagi yalpi majlisida O'zbekiston vakillarining hisobotlar bilan ishtiroy etishini ta'minlash.</p> <p>2021-2022-yillarda beshinchchi raund monitoringi amalga oshirilishi bo'yicha amaliy harakatlar rejasini ishlab chiqish.</p>	<p>2021-yil 1-sentabr</p> <p>2021-2022-yillarda davomida</p>	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, vazirlik va idoralar
33.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish.	Yevropa Ittifoqi doirasidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlatlar guruhi (GRECO), Korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari xalqaro assotsiatsiyasi (IAASA) tashkilotlariga a'zolik masalalarini ko'rib chiqish, shuningdek, xorijiy	2021-yil 1-avgust	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Tashqi ishlar vazirligi

		davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish choralarini ko‘rish.		
<b>V. Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minalash, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish</b>				
34.	Korrupsiya davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligini aholi va davlat xizmatchilari ongiga singdirish.	Davlat organlari matbuot xizmatlari tomonidan aholi va davlat xizmatchilari o‘rtasida: korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari va bunday huquqbazarliklar uchun javobgarlikni belgilovchi normativ-huquqiy asoslar bilan tanishtirish ishlarini olib borish; korrupsianing jamiyat va davlat uchun ijtimoiy xavfli xususiyatlari va oqibatlarini keng targ‘ib qilish; davlat fuqarolik xizmati nufuzini oshirish bo‘yicha kompleks chora tadbirlarni amalga oshirish.	Doimiy	Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Ichki ishlar vazirligi, Oliy sud, Bosh prokuratura
35.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tahlil va ilmiy izlanishlar sifati va natijadorligini tubdan oshirish.	Xorijiy va milliy hamkorlar ko‘magida va nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilgan holda Toshkent davlat yuridik universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish muammolarini tadqiq qilish bo‘yicha markaz faoliyatini tashkil etish yuzasidan takliflarni kiritish.	2021-yil 1-oktabr	Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura
36.	Korrupsiyaga oid jinoyatlar bo‘yicha ko‘rilgan sud ishlari to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarning ochiqligini ta’minalash.	“Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimi doirasida davlat organlari va tashkilotlari xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar haqidagi statistik ma’lumotlar hamda hukm qonuniy kuchga kirgan jinoyat ishlarining sohalar va hududlar kesimidagi elektron bazasini shakllantirish.	2021-yil 1-sentabr	Ichki ishlar vazirligi, Oliy sud, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura
37.	Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni doirasida keng ko‘lamli Antikorrupsiya haftaligini o’tkazish.	Media-reja ishlab chiqish va uning samarali amalga oshirilishini tashkil etish.	har yili noyabr-dekabr oylarida	Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi,

				Bosh prokuratura, Adliya vazirligi
38.	Davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi bilimlarini doimiy oshirib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.	Davlat boshqaruvi akademiyasi va uning filiallari negizida “halollik vaksinasi” tamoyili asosida davlat xizmatchilarini korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va odobaxloq qoidalari bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarda muntazam ravishda o‘qitish tizimini joriy etish.	2022-yil 1-yanvar	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Davlat boshqaruvi akademiyasi, Bosh prokuratura Akademiyasi
39.	Fuqarolar tomonidan korrupsiya holatlari haqida tezkor xabar berish imkoniyatini kengaytirish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzurida fuqarolarning korrupsiya haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi tunu-kun faoliyat yuritadigan “Call-markaz” ishga tushirish.	2021-yil 1-sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Moliya vazirligi
40.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni keng jamoatchilikka tizimli ravishda yetkazib borish.	Har oy o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladigan “Uzbekistan Anti-Corruption Digest” onlayn jurnalini ta’sis etish.	2021-yil 1-sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, Tashqi ishlar vazirligi, Moliya vazirligi
41.	Korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish borasidagi ishlarni jamoatchilikka yetkazib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.	OAV va ijtimoiy tarmoqlarda turli formatlardagi eshittirish, ko‘rsatuv, maqolalar va boshqa axborot materiallarini e’lon qilish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash.	2021-yil 1-sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Milliy teleradiokompaniya
42.	Aholini “Ochiq budjet” va “E-anticor.uz” platformalari bilan tanishtirishga qaratilgan keng ko‘lamli targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirish.	Tele va radiokanalarda turli formatlardagi ijtimoiy roliklar va eshittirishlarni tayyorlash va namoyish etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash.	2021-yil 1-sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Moliya vazirligi, Milliy teleradiokompaniya
43.	Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim berish bo‘yicha tizimli va manzilli tadbirlarni amalga oshirish.	Yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta’lim berish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni tasdiqlash.	2021-yil 1-avgust	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Korrupsiyaga

				qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura
44.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining OAV bilan samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan korrupsiyaga oid xabarlarni ko‘rib chiqish va jamoatchilikka ma’lumot berish tartibi va muddatlarini aniq belgilash.	2021-yil 1-avgust	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257сон Farmoniga  
2-ILOVA**

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjalariга kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi “2019 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-son Farmoniga **3-ilovaning** <sup>4</sup>-pozitsiyasida:

a) “Asosiy mas‘ul organ” grafasidagi “Bosh prokuratura” so‘zları “Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi” so‘zları bilan almashtirilsin;

b) “Turdosh davlat organlari” grafasidagi “Adliya vazirligi” so‘zları “Bosh prokuratura, Adliya vazirligi” so‘zları bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF-5635-son Farmoniga **3-ilovada**:

a) 2.1-pozitsiyaning “Korrupsiya darajasi” indikatorida “Mas‘ul davlat organlari” grafasidagi “Bosh prokuratura (N. Yo‘ldoshev)” so‘zları “Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A. Burxanov)” so‘zları bilan almashtirilsin;

b) 5.2, 6 va 17.6-pozitsiyalarning “Mas‘ul davlat organlari” grafasidagi “Bosh prokuratura (N. Yo‘ldoshev)” so‘zları “Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A. Burxanov)” so‘zları bilan almashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagи “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5729-son **Farmonida**:

a) **1-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. 2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda — Davlat dasturi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar Davlat dasturining har bir bandi bo‘yicha maqsadlarga erishishda samaradorlik indikatorlarini ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi bilan kelishib olsin”;

b) **5-bandning “a” kichik bandida:**

**to‘rtinchi xatboshidagi** “Idoralararo komissiya” so‘zları “O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi (keyingi o‘rinlarda — Milliy kengash)” so‘zları bilan almashtirilsin;

**beshinchi xatboshidagi** “Idoralararo komissiyaga” so‘zları “Milliy kengashga” so‘zları bilan almashtirilsin;

v) **8-bandning birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Milliy kengash (T.K. Narbayeva);”;

- g) **9-bandagi** “Idolararo komissiyaga” so‘zleri “Milliy kengashga” so‘zleri bilan almashtirilsin;
- d) **2-ilova** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;
- e) **3-ilova** quyidagi mazmundagi 3<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“3<sup>1</sup>. A.E. — O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori ”.  
Burxanov

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-son **Farmonida**:

a) **1-ilova** quyidagi mazmundagi 30<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“30<sup>1</sup>. A.E. — O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori ”;  
Burxanov

b) **3-ilova** 3.6, 5 va 11.2-pozitsiyalarining “Mas‘ul davlat organlari” grafasidagi “Bosh prokuratura (N. Yo‘ldoshev)” so‘zleri “Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A. Burxanov)” so‘zleri bilan almashtirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagи “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-son qarori 4-bandining **to‘rtinchи xatboshisi** chiqarib tashlansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi “Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4464-son qaroriga **1-ilovaning** birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“A.E. Burxanov — O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori, *Komissiya raisi*”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagи PF-6257-son **Farmoniga**  
**3-ILOVA**

## **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim hujjatlari**

### **RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 6-iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, shuningdek ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-5111-son Farmoniga 1-ilovaning **19-bandи**.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”gi PF-5191-son Farmoniga ilovaning **11-bandи**.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-5456-son Farmoniga 1-ilovaning **46-bandи**.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-5547-son Farmoniga 1-ilovaning **12-bandи**.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”gi PF-5769-son Farmoniga ilova 1-bandining **“a” kichik bandи**.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-5870-son Farmoniga 1-ilovaning **17-bandи**.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-5892-son Farmoniga 1-ilovaning **33-bandi**.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-son **qarori**.

*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021-y., 06/21/6257/0645-son)*